
Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani Kengashining 4-sessiyasi bo'lib o'tdi

Qo'shtepa tumani hokimligining majlislar zalida tuman Kengashi deputatlari, siyosiy partiyalar rahbarlari, kun tartibidagi masalalarga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan navbatdagi sessiyani tuman hokimi, Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi A.Abdullayev boshqarib bordi.

Sessiya kun tartibiga ko'ra, dastlab tuman sektor rahbarlarining axboroti tinglandi.

Shuningdek, sessiya davomida tuman prokurori A.Xudoyberganov, tuman IIB boshlig'i I.Xamroqulov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tumandagi Xalq qabulxonasi mudiri Z.Xomidov, tuman hokimining maslahatchisi M.Mo'ydinova hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi rahbari A.Umarqulovlarning axborotlari ham tinglandi.

Sessiya ishida ko'rilgan masalalar yuzasidan deputatlarning fikr-mulohazalari va takliflari asosida xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.

2025-01-22 17:10:23